

“Navoiyazot” Ajda mashqlar o'tkazildi

// 24 April 2015 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazotda-mashqlar-utkazildi>

2015 yil 22 aprelda “Navoiyazot” Ajda korxonaning fuqaro muhofazasi tuzilmalarining Navoiy viloyati Favquloda vaziyatlar boshqarmasi xizmatlari bilan birgalashib hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha ko'rgazmali maxsus-taktik mashqlar o'tkazildi.

Mashqlar davomida texnogen xususiyatga ega shartli favquloda vaziyatni bartaraf etish bo'yicha vazifalar bajarildi.

Maxsus ko'rgazmalari taktik mashqlarga 220 nafar kishi hamda 20-ta maxsus va muhandislik texnika vositalari jalb etildi.